

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI "TARBIYA" FANINI O'QITISHGA TAYYORLASHNING SAMARALI TAMOYILLARI VA OMILLARI

Yoqubaliyeva Dilafro'z Payzidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga tayyorlashning samarali usullari va amalga oshirish tamoyillari haqida ma'lumot berilgan. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish va Tarbiya fanini o'qitishda tarbiya tamoyillarini va omillari, mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatining pedagogik-psixologik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya tamoyillari, tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlar, ijtimoiy kompetentlik, tarbiya didaktikasi, psixologik jihati, tarbiya amaliyoti, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, hayotiy tajriba.

EFFECTIVE PRINCIPLES AND FACTORS OF PREPARING TEACHERS OF THE FUTURE DISCIPLINE FOR TEACHING "UPBRINGING"

Yakubaliyeva Dilafroz Payzidin's daughter
Andijan State Pedagogical Institute
Teacher of the Department of pedagogy and psychology

Annotation. This article provides information on effective methods and principles of implementation of preparing teachers of the future discipline for the teaching of upbringing. In the development of professional competencies in teachers of general secondary education schools in our republic, pedagogical and psychological conditions of the use of educational technologies and the importance of factors and content in ensuring the effectiveness of the educational process in teaching educational science are highlighted.

Keywords: principles of upbringing, initiative, self-sacrifice, moral qualities, social competence, didactics of upbringing, psychological aspect, educational practice, self-awareness, self-assessment, life experience.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-ПЕДАГОГОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ ПРЕДМЕТА” ВОСПИТАНИЕ”

Якубалиева Дилафруз Пайзидовна дочь
Андижанский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективных методах и принципах реализации подготовки будущих учителей дисциплины воспитание к преподаванию дисциплины воспитание. Освещены педагогико-психологические предпосылки использования образовательных технологий в развитии профессиональных компетенций у педагогов общеобразовательных школ республики и значение принципов и факторов воспитания, содержания, обеспечения эффективности учебно-воспитательного процесса в преподавании дисциплины воспитание.

Ключевые слова: принципы воспитания, инициатива, целеустремленность, нравственные качества, социальная компетентность, дидактика воспитания, психологический аспект, практика воспитания, самосознание, самооценка, жизненный опыт.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni yangi O'zbekistonga munosib farzand qilib tarbiyalash o'z navbatida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilar faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham hozirda yangi O'zbekistonning istisboli va kelajagi uchun kurashchi, chuqur ma'suliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalashda eski usullardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, sharqona va demokratik jarayonlar asosida jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish va mehr-oqibatli bo'lish kabi fazilatlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mana shunday talablar asosida

o‘quvchilarning, axloqiy madaniyati, hayot tajribasi va bilim darajasi ortib boradi. O‘quvchi-yoshlar jamiyatda, jamoada, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishga, mamlakat oldida turgan ulkan vazifalarni hal etish uchun kurashga faol ravishda tushiladilar. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan bunyodkor ishlari uchun ilhomlantirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi tarbiyaviy ishning muhim samarasi sifatida millat istiqboli, taraqqiyoti bilan bog‘liq muammolarni milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuygularini rivojlantiradi[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e‘tiborni yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo‘lgan «hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz”– degan fikrlari ta’lim sohasidagi amalga oshirilib kelinayotgan ishlarimizni samarali tashkil etishimiz uchun dasturul amal bo‘ladi[2]. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat


Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murajaatnomasida “.....jamiyatda o‘qituvchi kasbi eng nufuzli va obro‘li kasb bo‘lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta‘lim berish va o‘z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o‘ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur”-deb ta’kidlab o‘tdilar [3]. “Tarbiya” fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati haqida gap ketganda empatiya muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan empatiya o‘qituvchining ularning emotsional dunyosiga yo‘nalganlik, ichki olamidagi vaziyatni his qila olishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o‘g‘itlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining ko‘rinishiga, g‘ururi hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo‘lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zununov va boshqalarning ta‘lim-tarbiya va ma‘rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Oliy ta‘lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy-metodik tayyorgarlik tamoyili muhim o‘rinni egallaydi. Bu tamoyilni tadqiq etgan pedagog olimlar V.A.Suhomlinskiy, V.P. Bepalko V.A.Slastenin, I.YA.Lerner, A.K.Markova, E.F.Zeer, N.N.Shammatova V.V.Kraevskiy, I.A.Zimnyaya, A.V.Barannikov, V.A.Adolf, M.V.Dolgih, A.R. Hayrullin[4] kabi pedagog-olimlar shug‘ullanishgan[5]. O‘zbekiston olimlaridan bo‘lajak o‘qituvchilarni bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini U.Tolipov, N.Sayidahmedov, F.Yuzlikayev, N.Muslimov, O.Qo‘ysinov, D.Himmataliyev, B.Rahimov, M.Urazova, SH.Urakov, N.Niyazova va boshqalar o‘zlarining ilmiy-tadqiqotlarida muammoni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan[6].

Natijalar. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarida O'zbekistonda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati tashkil etilgani va uning maqsadi do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini `qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini o'quvchilariga tushintirishlari lozim. Bo'lajak o'qituvchilar "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan holda yoshlarni ona-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularga tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga tayyor bo'lishlari muhim ekanligini aytib o'tamiz. Shu o'rinda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining ilm-ma'rifati shundaki o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini, ta'lim-tarbiya ishlarini, o'zbek xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlarini, respublikamizning istiqboli bilan chambarchas bog'liq holda olib borish natijasida ularda faxrlanish, milliy manfaatlarni amalga oshirishga intilish, boshqa xalqlar va millatlarning milliy qadr-qimmatini udumlari, tarixi, adabiyoti va san'atini o'rganish tuyg'ularini shakllantiradi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchvun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:



Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'sis etilgan yangi "Tarbiya" fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda yangi fan

“Tarbiya” asoslari bo‘yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yig‘indisiga aytiladi. Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg‘or ta‘limotlar g‘oyalari hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg‘or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta‘minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi;

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalari ustunligi;

Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;

Tarbiyada izchillik va tizimlilik;

Tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo‘shib olib borish;

Tarbiyani mehnat bilan bog‘lash;

Tarbiyalanuvchi shaxsni xurmat qilish;

Tarbiyada o‘quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;

Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;

Tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo‘qotish.

Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi – o‘qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur. Yosh avlodni yuksak g‘oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo‘lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta‘limi hodimlarining asosiy

vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ruyobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur. O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi – tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustunligi-tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu-tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyektiga emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchi teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim. Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi-xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim. Umumbashariyat uchun qadrlil, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini

uyg‘otish, ularni qo‘llab-quvvatlash, ezgu g‘oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik-tarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo‘naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart. Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O‘quvchilarga birdaniga ko‘p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O‘qituvchilar o‘quvchilarga bo‘lgan munosabat jarayonida o‘zaro bir-biriga zid harakatda bo‘lmashliklari, yagona talab qo‘yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo‘shib olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta’siri g‘oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o‘z qobiliyati va iste’dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O‘quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini taminlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma’naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Maktabda o‘qishning o‘zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog‘langan.


Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish-o‘quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko‘rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko‘rsatishicha, qayerdagi o‘quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo‘lsa, shu yerda tarbiyaning ta’siri samarali bo‘ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo‘shadi, o‘qituvchiga nisbatan hurmatni uyg‘otadi.

Tarbiyada o‘quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish-tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo‘ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik bosqichlarini bosib o‘tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg‘unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o‘rtasidagi uyg‘unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma‘naviy o‘shida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo‘ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o‘qishi va mehnatida aks etadi. Bir o‘quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o‘quvchiga nisbatan qo‘llaganda natijasiz bo‘lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchi xususiyatini o‘rganish maqsadga muvaffiqdir.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash-tarbiya jarayoni o‘quvchilarning jamoa bo‘lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o‘zaro yordam tuyg‘usini o‘stirishga hizmat qilishi lozim. Tuyg‘u tashkil etilgan jamoa a‘zolarining qobiliyat va iste’dodini rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo‘ladi. O‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo‘ladi, har bir shaxsga ta’sir etadi. O‘z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo‘shib olib borish, o‘zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O‘qituvchi hamma vaqt o‘quvchilar jamoasiga tayanmog‘i, ularni jamoa bo‘lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o‘rgatib borish lozim. Tarbiyada o‘quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo‘qotib borishga e’tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o‘z o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko‘radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo‘qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to‘g‘ri hal etilishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Tarbiya jarayonini tashkil etishda

o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Muhokamalar. Tarbiyaviy texnologiyada uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchining tarbiyalash maqsadlarini to'g'ri belgilashi va yo'lga qo'ya olishiga nisbatan g'oyaviy yondashuv ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, amalga oshirilishida mavjud shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar 3 asosiy jihatlarga ahamiyat berishlari lozim:



Nazariy jihati-bu tarbiyachining pedagogik va psixologik bilimlarini tizimiy ravishda o'z mehnat faoliyatiga moslash;

Psixologik jihati-bu tarbiyalanuvchilar bilan kun davomida o'zaro munosabat o'rnatish, muloqotda bo'lish jarayoni uchun sharoit yaratish.

Amaliy jihati-bu tarbiyalanuvchi bilan o'zaro munosabat o'rnatish davomida bilim va tajribasiga tayanib, barcha malaka va ko'nikmalarni qo'llash. Bu uchala jihatlarning o'zaro mantiqan bog'liqligi ta'lim jarayonini nazariy bilimlardan foydalangan holda amaliyotda qo'llash uchun zamin yaratadi. Har bir shaxsni hamkor sifatida qabul qilish va inkor etmaslik, sabrlik bilan dunyoning xilma-xilligini tushuntirib borish, u bilan bo'ladigan munosabatlarning doimiy mexanizm tizimini mazmunli to'zish barcha ta'lim muassasalari mutaxassisining burch va vazifasidir. Shaxsga qaratilgan ta'lim modelini amalga oshirishda tarbiyachi doimo ahamiyat berishi lozim bo'lgan faktorlar:

motivasion, ya'ni manfaatdorlik faktori-o'z kasb faoliyatiga mas'uliyatli bo'lish, ijodiy yondoshish, o'z sohasini mukammal bilish;

shaxsga moslashish faktori-tarbiyachi faolligi, tarbiyalanuvchi va uning otanasini hamda kasbdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda ichki va tashqi kelishmovchiliklarni ko'rsatmaslik;

shaxsga yo'naltirilganlik-tarbiyachining tarbiyalanuvchiga nisbatan ideal sub'ekt sifatida emas, balki o'z ehtiyoj va imkoniyatlariga ega shaxs sifatida munosabatda bo'lishi;

maxsus mutaxassislik-tarbiyalanuvchining individual ko'rsatkichlarini bilish, o'z bilim va malakasini pedagogik-psixologik jarayonda namoyon etish;

texnologik-uslubiy-pedagogik-psixologik jarayonda maqsadni belgilay olish, natijalarni bashorat qila olish, innovasion usullarni qismlarga bo'lib maqsadli qo'llash;

kommunikabellik (kirishimlilik) - ijobiy hissiyotlarga tayangan holda, perseptiv insonni insonga nisbatan ijobiy qabul qilish, barcha bilan chiqishib ketish, muloqot o'rnatishning zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish;

kasbiy mahorat - o'z kasbi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini mahoratlik bilan amaliyotda qo'llash, doimiy izlanish, mustaqil va ijodiy fikrlash, yangi malaka va ko'nikmalarga tayangan holda shaxsdagi fiziologik o'zgarishni kuzatish va tahlil qila bilish.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday to'zum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot

darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayoninig xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari pedagogik texnologiyaga oid bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo'lishi shart: o'qituvchi xatti-harakatlarning algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar: Tarbiya -yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, insonning jamiyatda muayyan sifatlarini (jismoniy, ma'naviy, ruhiy, aqliy) ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya jarayoni-har bir insonning hayot uchun yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatini o'zida shakllantirish hamda o'zgalarga berish jaryonidir. Tarbiya maqsadi-talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Tarbiya maqsadining aniqligi - O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» [gi Qonunlarining](#) g'oyalarini e'tiborga olgan holda erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya'ni, shaxsning aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini shakllantirish kabi tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi-tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olinishi, har bir bola, o'smir va

o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olishdir. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini va ulkan hamda boy merosini chuqur bilish, milliy o'zlikni anglash, millat g'urur tuyg'usini qaror toptirishlarga qaratilgan faoliyatdagi asos. Bunda xalq ana'nalari, urf-odatlar, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatini qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya tamoyillari - yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisi. Tarbiya qonuniyatlari-tabiati yoki millatdagi har qanday murakkab hodisa obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar tizimidir. Tarbiya vazifasi- ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari hamda ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligini qanday metodlardan foydalanishga bog'liqligi.

Tarbiyalanganlik - milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z xatti-harakatlari bilan o'zgaralar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir. Komil inson – yetuk, to'liq, mukammal, barkamol, olimu dono, aqli teran, yaxshi tarbiya ko'rgan, odob-axloqli, ma'naviy jihatdan to'liq shakllangan inson.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki, bu kabi tushunchalar orqali bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari o'quvchilarga tarbiya tamoyillari, tarbiya jarayoni va tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari haqida batafsil ma'lumotlar beradilar. Shaxsning shakllanishida tarbiyaning muhimligi, tarbiya vazifalari haqida mavzular doirasida tushunchalar bemoqdalar. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari pedagogik malakasini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish pedagogik jarayonni yanada

mukammallashtiradi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori. [www. lex. uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Toshkent.1997 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF- 4947-son farmoni «Xalq so'zi», 2017 yil 8 fevral
3. Muslimov N. A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi Monografiya.–T.:“Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
4. Yoqubaliyeva, D. Z. (2024). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish orqali fanni o'qitishga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 190-192.
5. Yoqubaliyeva, D. Z., & Norqobilov, D. (2024). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 63-65.
6. Yakubaliyeva, D. (2023). PREPARATION FOR THE ORGANIZATION OF SCIENTIFIC RESEARCH WORKS IN STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Science and innovation*, 2(B12), 447-452.
7. Dilafro'z, Y., & Umida, H. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOGLARINING KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 8(2), 61-64.

8. Umida, U., & Dilafuz, Y. (2023). O'QUVCHI YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 1 (1), 106-115.